

MUMTOZ ASHULA IJROCHILIGIGA IJODIY YONDASHUVLAR

Hamroqulov Naimdjon Baxronovich

Samarqand davlat pedaogika institute

“Musiqqa ta’limi” kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda talabalarda vokal texnika, intonatsiya, artikulyatsiya va ijodiy ifodani rivojlantirishning pedagogik metodlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ijrochilik jarayonida talabalarga ashulaning mazmuni, ritmik va melodik xususiyatlarini chuqur anglash, shuningdek, ijodiy tafakkur va badiiy didni shakllantirish imkoniyatlari muhokama qilingan. Maqolada tinglash, tahlil qilish va ijrochilik mashqlarini samarali tashkil etish orqali mumtoz ashula san’atini o‘rganishning ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mumtoz ashula, ijrochilik, ijodiy yondashuv, vokal texnika, intonatsiya, artikulyatsiya, talaba yoshlar, pedagogik metodlar, musiqa ta’limi, milliy musiqa merosi

CREATIVE APPROACHES TO THE PERFORMANCE OF CLASSICAL ASHULA

Hamroqulov Naimdjon BaxronovichSenior Lecturer, Department of Music Education
Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract. This study examines pedagogical methods for developing vocal technique, intonation, articulation, and creative expression in students. It also discusses the possibilities of helping students deeply understand the content, rhythmic and melodic features of ashula during the performance process, as well as fostering creative thinking and artistic taste. The article highlights the importance of studying classical ashula art through effective organization of listening, analysis, and performance exercises.

Keywords: classical ashula, performance, creative approach, vocal technique, intonation, articulation, students, pedagogical methods, music education, national musical heritage.

Mumtoz ashula O‘zbek milliy musiqa merosining eng qadimiy va boy janrlaridan biridir. Ushbu janr nafaqat milliy musiqa an‘analarini, balki xalqning ma‘naviy-estetik qadriyatlarini ifodalaydi. Mumtoz ashula ijrochiligi talabalarda nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki ijodiy tafakkur va badiiy didni shakllantirish imkonini beradi.

Ijodiy yondashuvlar, ya’ni ijrochining asarni shaxsiy talqin etishi, intonatsiya va ifoda vositalarini boyitishi mumtoz ashula san’atini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik metodlar yordamida talabalarda vokal texnika va badiiy ifodaning uyg‘unligini ta’minlash mumkin.

An‘anaviy xonandalik ijro maktabida mumtoz ashula janrining o‘rni beqiyosdir. Mumtoz ashulachilik - lirik xarakteridagi rivojlangan kuy va shakliga ega bo‘lgan yirik aytim-ashula yo‘li. Ashula mumtoz musiqaning yetakchi janrlaridan bo‘lib, o‘zining kuy rivoji, vazmin lirik yoki og‘ir

xarakteri, hayajonli va dardli mazmuni, diapazon kengligi, usul-ritmining sezilarli darajada murakkabligi va ijro uslubi mukammalligi bilan ajralib turadi [2; 84-b.].

Mumtoz ashula janri Sharq va o'zbek shoirlarining aruz vaznida yozilgan g'azal, ruboiy, muxammas va boshqa lirik janrlariga asoslanadi. Sharq mumtoz ashula ijodida Lutfiy, Fuzuliy, Alisher Navoiy, Jomiy, Xaziniy, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Munis, Ogahiy kabi shoirlarning asarlari keng qo'llanilgan bo'lsa, o'zbek mumtoz ashularida Chustiy, Sobir Abdulla, Po'lat Mo'min, Erkin Vohidov, Kamtar, Erkin Samandar, Omon Matjon, Oshiq Erkin, Normurod Narzullayev va Matnazar Abdulhakimning ijodiy merosi muhim o'rin tutadi. Mumtoz ashular falsafiy, ishqiy-lirik va nasihatgo'y mazmuni bilan ajralib turadi. Bu janrda so'z va kuy o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, asarning butun mazmun mohiyatini tashkil etadi. Ashulardagi vazn, qofiya, ohang va musiqiylik tinglovchida estetik zavq uyg'otadi va hissiy kayfiyat yaratadi [3]. Ashula janri folklor va mumtoz musiqa ijodiyoti bilan chambarchas bog'liq, ammo uning matni, kuy rivoji va ijro uslublari bilan farqlanadi. Masalan, folklor yo'nalishida "Dog'man", "Aylab keling", "Do'stlar", "Tanovar" kabi ashular mavjud bo'lsa, mumtoz ashula namunalari "Qora soch", "Sumbula", "Endi sendek", "Adolat tanovari" va "Yovvoyi tanovar" kiradi [4].

Mumtoz ashular musiqiy matn rivoji, kuy tuzilmasining davomiyligi, keng diapazon va baland avj jihatlari bilan xalq ashularidan farq qiladi. Shu sababli ular bastakorlik va mumtoz ijodda muhim o'rin egallaydi. Buxoroda Muxammas va xalq ashula, Xorazmda suvora va naqsh, Farg'ona vodiysida ashula yo'llari, katta va yovvoyi ashula shakllari mavjud. Diniy va pand-nasihat mavzularida esa Mashrab, Ahmad Yassaviy, Ogahiy, Feruz, Xaziniy, Furqat, Huvaydo, Maxtumquli ijodidagi munajat, na't, qalandar, xonaqo'yi, hamd va manzuma janrlari shakllangan [5].

O'zbek bastakorlari ham mumtoz ashula janrini rivojlantirgan bo'lib, asarlar yakkanavoz ijrosi yoki cholg'u ansambli bilan ifodalanadi. Misol tariqasida "Tanovar", "Munajat", "Girya", "Adashkanman", "Qora dali", "Suvorayi Komil", "Savti Suvora", "Yolg'iz", "Qomating", "Ol xabar" kabi ashular va Yunus Rajabiy, O. Hotamov, J. Sultonov, F. Sodiqov, K. Jabborov, M. Murtazoyev va A. Abdurasulov ijodidagi asarlar keltirilishi mumkin [4]. Mumtoz ashula ijrochiligi an'anaviyligi, ta'sirchanligi, professionalligi va boy badiiy-estetik vositalarga ega bo'lishi bilan o'ziga xos musiqa-ijrochilik san'at turiga aylangan. Bu janr milliy ruhni, qadriyatlarini saqlash va keyingi avlodga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, mumtoz ashula ijrochiligi yosh ijodkorlar uchun ijodiy yondashuv, estetik did va musiqa madaniyatini rivojlantirishda samarali maktab vazifasini bajaradi [3].

Xalq ashula yo'llariga qaraganda mumtoz ashula yo'llari yetuk xonandalar tomonidan cholg'u (tanbur, dutor, tor) jo'rnavozligida talqin etiladi. Mumtoz ashula yo'llari janrlar tarkibiga mumtoz ashula, mumtoz yalla, katta ashula (Farg'ona vodiysi), muxammas va xalq ashula (Buxoro), suvora va feruz turkumlari (Xorazm) va diniy mavzuidagi munajat, na't, hamd, manzuma, yakkaxonlik, xonaqohiy qalandarlar kiradi [2; 85-b.].

Talabalarda mumtoz ashula janrini o'rganish jarayonida vokal texnika, intonatsiya, artikulyatsiya va ijodiy ifodaning shakllanishi tizimli pedagogik yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Vokal texnika mashqlari nafas olish, ovoz diapazonini kengaytirish, tovush sifatini nazorat qilish va ohangni aniqlik bilan ifodalash imkonini beradi. Intonatsiya va artikulyatsiya elementlari esa matnning

ma'nosini aniq etkazish, so'z va kuyni uzviy bog'lash hamda ishqiy-lirik, falsafiy va nasihatgo'y mazmunlarni to'g'ri ifodalashda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Ashulaning ritmik va melodik xususiyatlarini chuqur anglash ijrochilik jarayonining markaziy qismi hisoblanadi. Talabalar ijro qilayotgan asarning strukturasi va tuzilish qonuniyatlarini tahlil qilganda badiiy tafakkur rivojlanadi, musiqiy matndagi ritmik va intonatsion nozikliklarni sezish qobiliyati oshadi. Shu bilan birga, ijodiy ifodaning shakllanishi vokal ijroda shaxsiy uslubni yaratish, hissiy va estetik elementlarni musiqiy ifoda orqali etkazish imkoniyatini kengaytiradi.

Tinglash va tahlil faoliyati ijrochilik ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Talabalar mohir hofizlar va bastakorlar ijrosini tinglash orqali turli ijro uslublari, ohangdorlik, tempo va musiqiy ifoda vositalarini o'zlashtiradi. Bu jarayon musiqiy eshituv qobiliyati, ritm va melodik tuyg'uni rivojlantiradi hamda amaliy mashg'ulotlarda ijrochilik ko'nikmalarini yanada mustahkamlaydi.

Nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar uyg'unligi mumtoz ashula janrini chuqur o'rganishda samarali metodik asos yaratadi. Mazkur pedagogik yondashuvlar estetik did, ijodiy tafakkur va professional vokal malaka rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tarzda, mumtoz ashula san'ati talabalarda nafaqat kasbiy, balki ma'naviy-estetik rivojlanish vositasi sifatida ham o'z o'rnini topadi.

Xulosa. Mumtoz ashula janri o'zining boy badiiy-estetik va musiqiy xususiyatlari bilan Sharq va o'zbek mumtoz musiqa merosining muhim qismidir. Ushbu janrda so'z va kuyning uzviy bog'liqligi, falsafiy, ishqiy-lirik va nasihatgo'y mazmuni, shuningdek, murakkab kuy tuzilmalari va keng diapazonli ijro talablari bilan ajralib turadi.

Mumtoz ashula ijrochiligi nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki ijodiy yondashuv, badiiy tafakkur va estetik didni shakllantiradi. Bastakorlar va ijrochilar ijodidagi uslubiy va shakliy xilma-xillik, ijro texnikasi va vokal imkoniyatlarning rivojlantirilishi talabalarda ijodiy tafakkur va professional malakani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu tariqa, mumtoz ashula janri yosh xonandalar uchun milliy musiqa merosini chuqur o'rganish, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va estetik didni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. U o'zbek mumtoz musiqa ijodiyotining boyligi va an'anaviyligini saqlab qolishda, shuningdek, kelajak avlod xonandalarini malakali va ijodiy shaxs sifatida tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek milliy maqom san'atini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 17-noyabr 2017.
2. Muhammadova O. An'anaviy xonandalik, o'quv qo'llanma, Samarqand, 2024.
3. Rajabiy Y. Musiqa merosimizga bir nazar, -T., 1978.
4. Qudratov I. An'anaviy xonandalik, darslik, Samarqand, 2022.
5. Bo'riyeva K. An'anaviy xonandalik (Ayollar ovozi uchun), o'quv qo'llanma, -T., 2008.
6. Akbarov I. Musiqa lug'ati, -T., 1987.